

Date: 21st January-2026

O'ZBEK MAKTABLARIDA ALISHER NAVOIY HAYOTI VA LIRIK
MEROSINING O'QITILISHI

Maxmudova Sadoqat Xolmatovna

BuxDPI professori, dotsent

Karimova Munavvar Nodir qizi

BuxDPI II kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada A.Navoiy hayoti va ijodining maktab darsliklarida o'qitilishi, ajratilgan akademik soatlar, e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan muhim masalalar haqida ma'lumotlar berilgan.

Abstract. This article provides information about the teaching of A. Navoi's life and work in school textbooks, the allocated academic hours, and important issues that should be paid attention to.

Kalit so'zlar. Maktab darsliklari, akademik soat, DTS talablari, lirik meros.

Keywords. School textbooks, academic hours, DTS requirements, lyrical heritage.

Zamonaviy ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan birlamchi vazifalardan biri sifatida ham ma'nan ham jismonan barkamol shaxsni tarbiyalash masalasi qo'yilgan ekan, shubhasiz, mazkur jarayonda bevosita ma'rifat, odob-axloq kabi ezgu insoniy qadriyatlar tarannumi ish ko'ruvchi ona tili va adabiyot fanlarining o'rni beqiyos. Kelajagimiz egalari bo'lmish bugungi kun yoshlari qalbiga go'zal fazilatlarni singdirishda adabiyot darslarida o'rganiladigan badiiy asarlar, jumladan, Alisher Navoiyning inson tarbiyasi haqidagi axloqiy-ta'limiy, falsafiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega asarlari chinakam ta'lim-tarbiya manbayi hisoblanadi. Jahon fani va manaviyati taraqqiyotiga mislsiz hissa qo'shgan Alisher Navoiyning ma'naviy merosini mustaqil O'zbekistonning kelajagi bo'lmish o'quvchi yoshlarga singdirish, o'qitish g'oyasi doimo dolzarb bo'lib kelgan. Shuning uchun ham Alisher Navoiy ijodi umumta'lim maktablarining barcha sinflarida o'rganiladi.

Joriy o'quv yilida adabiyot fani uchun umumta'lim maktablariga O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligi, respublika ta'lim markazi tomonidan tavsiya etilgan uzviylashtirilgan DTS asosida tuzilgan taqvim-mavzuviy o'quv rejaga ko'ra har bir sinf doirasida Alisher Navoiy hayoti va ijodi uchun maxsus dars soatlari ajratilgan va mavzulashtirilgan holatda o'quv darsliklariga kiritilgan. Xususan, umumta'lim maktablarining:

- 5-sinf o'quvchilari uchun 5 akademik soat;
- 6-sinf o'quvchilari uchun 6 akademik soat;
- 7-sinf o'quvchilari uchun 7 akademik soat;
- 8-sinf o'quvchilari uchun 7 akademik soat;
- 9-sinf o'quvchilari uchun 12 akademik soat;
- 10-sinf o'quvchilari uchun 6 akademik soat;
- 11-sinf o'quvchilari uchun 4 akademik soat dars mashg'ulotlari ajratilgan.



Date: 21st January-2026

Maktab ta'limida ta'limiy-axloqiy, ishqiy-falsafiy ruhga yo'g'rilgan, "Xamsa" dostoni, "Mahbub ul-qulub" asarlaridan parchalar hamda "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidan joy olgan qator g'azal, ruboiy, fard kabi lirik asarlaridan namunalar keltirilgan.

Jumladan, Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. hammuallifligida yaratilgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining **5-sinflari uchun mo'ljallangan adabiyot darsligida**¹:

-Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida ancha mufassal ma'lumot beruvchi Shuhrat Rizayev muharrirligi ostidagi tarjimayi hol;

-“Hayrat ul-abror” dostonining 10-maqolatning asl varianti hamda nasriy bayoni;

-qoliplovchi hikoyat hisoblanmish “Sher bilan durroj” hikoyatining asl varianti hamda nasriy bayoni;

- “Hayrat ul-abror” dostonida to'g'rilik va egrilik to'g'risida” deb nomlangan maqola keltiriladi.

Ahmedov S., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. hammuallifligida yaratilgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining **6-sinflari uchun mo'ljallangan adabiyot darsligida**²:

- Navoiy ijodiyoti va shaxsiyatining naqadar buyuk ekanligini ochib berish uchun xizmat qiluvchi kichik hajmli ilmiy-ommabop xulosa;

-Adibning boshdan-oxir axloqiy-ta'limiy ruhga yo'g'rilgan “Mahbub ul-qulub” asarining saxovat va himmat, hilm, do'st-u yorga yaxshilikni ravo ko'rish, shirinsuxanlik, safarning inson kamolotidagi foydalari haqidagi 11, 12, 18, 22, 30, 48, 49, 50, 108, 110-tanbihlarining asl varianti va nasriy bayoni;

-“Alisher Navoiyning hikmatli so'zlari va “Mahbub ul-qulub”asari haqida” kitob mualliflari tomonidan yozilgan maqola berilgan.

Yo'ldoshev Q, Qosimov B, Qodirov V, Yo'ldoshbekov J. hammuallifligida yaratilgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining **7-sinflari uchun mo'ljallangan adabiyot darsligida**³:

-Navoiyning yoshlik va balog'at davrini, davlat amaldori sifatidagi faoliyatini, ijodkor tomonidan turli davrlarda yaratilgan asarlar nomini to'la yoritib bergan tarjimayi hol;

-“Xamsa” tarkibiga kiruvchi “Sab'ai sayyor” dostonining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib beruvchi kichik hajmli kirish so'z bilan birgalikda “Mehr va Suhayl” hikoyati to'liq holatda keltiriladi. Hikoyatning asl matni, izohtalab so'zlar lug'ati, dastlabgi uch bobda har bir bayt ostida uning tadbili berib o'tiladi, qolgan IV, V, VI boblar yosh xususiyatlarini

¹ Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik-majmua. – T.: “Sharq”, 2015.

² Ahmedov S, Qo'chqorov R, Rizayev Sh. Adabiyot: Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua.–T.: “Ma'naviyat”, 2017.

³ Yo'ldoshev Q, Qosimov B, Qodirov V, Yo'ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. –T.: “Sharq”, 2017.

Date: 21st January-2026

inobatga olgan holda, o'quvchida mumtoz matn bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida tadbilsiz beriladi va asar sharhni amalga oshirish ta'lim oluvchilarning o'ziga havola etiladi;

-Tashbih, tanosib, irsoli masal badiiy san'atlari xususida nazariy ma'lumot keltiriladi va ular mazkur asardan keltirilgan misollar asosida izohlanadi. Olimov S., Ahmedov S., Qo'chqorov hammuallifligida yaratilgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining **8-sinflari uchun mo'ljallangan adabiyot darsligida**⁴:

- Navoiyning yoshlikdan Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asarini sevib mutolaa qilganligi va keyinchalik uning ta'sirida "Lison ut-tayr"ni yaratganligi,

1466-1469-yillarga Samarqanddagi madrasada ta'lim olganligi, so'ng Husayn Boyqaro saroyida siyosiy faoliyat bilan shug'ullanib "Muqarribi shohiy" darajasigacha ko'tarilgani, ehtirom namunasi sifatida Toshkent, Tokio, Moskva, Boku shaharlarida haykal o'rnatilganligi xususida ma'lumot beruvchi tarjmayi hol;

-Shoirning lirik merosidagi shoh asar hisoblanmish "Xazoyin ul-maoniy" devoni xususida mufassal ma'lumot beruvchi kirish so'z, mazkur devon tarkibiga kiruvchi "Qilg'il...", "Deyin...", "Kelmadi...", "Jong'a chun dermen: "Ne erdi o'lmakim kayfiyati?..", "Yo'q...", "Bo'ldum sanga...", "Bo'l..." kabi g'azallari va ularning g'oyaviy-badiiy tahlili, mustaqil o'qish uchun "Etmas...", "Muvofiq kiydilar bo'lmish magar Navro'z ila bayram?..", "To muhabbat dashti bepoyonda ovoramen..." , "Sho'x ikki g'izzolingni noz uyqusidin uyg'ot..." radifli g'azallari izoh talab so'zlar lug'ati bilan berilgan, ammo g'oyaviy-badiiy tahlilni amalga oshirish o'quvchi hukmiga havola etilgan.

- "Kamol kasbiga dalolat-u nuqsonidin izhori malomat", "Falokatdin ayog'ig'a kafsh bo'lmag'anga chun kafsh uchun ayog'i bor, shukr vojibdur" nomli qit'alar g'oyaviy-badiiy tahlillari bilan, "Oltun, kumushga hirs man'ikim, tutmog'i ilikni qora qilur va muhabbati – ko'ngulni", "Devonda muhr bosqondin nafsiga shikast yetmagan uchun muhrg'a shikast bergani", "Yuqori o'lturmoq talashquchilarkim, hinduyi didbon alardin yuqoriroqdurur, uchar qo'ng'uz – ilgariroq", "Yamon yamonlig'ini qilmasa, yaxshilig'cha bor va bir yaxshilig' qilsa, o'n yaxshi qiliqcha", "Amir ul-mo'minin Ali Karamallohu Vajhahu so'ziga tarjimakim – unzur limoqola lotanzur limanqola" nomli qit'alari mustaqil tahlil uchun berilgan;

-Nazariy ma'lumot qismida g'azal va qit'a adabiy janrlari xususida mufassal ma'lumot berilgan.

Qozoqboyev Y., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. hammuallifligida yaratilgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining **9-sinflari uchun mo'ljallangan adabiyot darsligida**⁵:

-Sharqqa xos xamsachilik an'anasi, Alisher Navoiyning "Xamsa"dostoni yuzasidan qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Navoiyning xamsachilik an'anasiga qo'shgan ulkan

⁴ Olimov S., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014.

⁵ Qozoqboyev Y., Qosimov B., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik-majmua. –T.: "Yangiyo'l poligraf servis", 2014.

hissasi haqida fikr yuritiladi;

-“Farhod va Shirin” dostoni asl variantdan she’riy parchalar hamda nasriy qisqartma bayonlar orqali to’liq tarkibda beriladi. O’quvchida mumtoz matn bilan ishlash ko’nikmasini shakllantirish maqsadida she’riy parchalar tarkibida kelgan eskirgan so’zlar izohi keltirib o’tiladi. Bu o’quvchining asar tadbilini mustaqil ravishda amalga oshirishiga xizmat qiladi;

-“Farhod va Shirin” dostoni haqida darslik mualliflari tomonidan ilmiy maqola keltiriladi;

-Komil inson xususida tasavvufga oid nazariy ma’lumot keltiriladi. Bu o’quvchining asar mazmunini yanada teranroq anglashida yordam beradi.

To’xliyev B., Karimov B. Usmonova K. hammuallifligida yaratilgan umumiy o’rta ta’lim maktablarining **10-sinflari uchun mo’ljallangan adabiyot darsligida**⁶: -Ushbu darslikning Navoiy tarjimaiy holiga bag’ishlangan qismi Alisher Navoiy hayoti va ijodini butun bo’y-basti bilan namoyon qilganligi bilan tahsinga sazovordir. Unda shoirni o’rab turgan temuriylar davridagi adabiy-ijodiy muhit, ijodkorning zamondoshlari tomonidan bildirgan fikrlar, qolgan darsliklarda deyarli to’xtalilmagan shoir asarlari: “Majolis un-nafois”, “Muhokamat ul-lug’atayn”, “Tarixi mulki ajam”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Nazm ul-javohir”, “Munshaot” kabilar haqida qisqacha ma’lumotlar berib o’tiladi. Bu o’quvchida mazkur asarlar yuzasidan ham tushuncha hosil bo’lishiga xizmat qiladi;

-Alisher Navoiyning “Ilk devoni” tarkibiga kiritilgan “Ko’zung ne balo qaro bo’lubdur...”, “Meni men istagan...”, “Ey sabo...” deb boshlanuvchi 3ta g’azal namunasi va ularning g’oyaviy-badiiy tahlili keltiriladi;

-Qit’a adabiy janri haqida fikr yuritilib, “Haq taolo xoni in’oi-yu karami omi borida o’zga din nima tilagonining tamayi xomi-yu zoti nofarjomi”, “Saxo-vu bulx bobida nukta surmak va arolarida ikki vosita kelturmak”, “Ul bobdakim jahon ahli bevafor va alardin vafo ko’z tutmoq xatodur”, “Shohni ajdahoga nisbat qilib tururkim, ganj umidi ham andin boru ranj biymi ham” deb nomlanuvchi va “Navoiy she’ri to’qquz bayt-u, o’n bir bayt...” deb boshlanuvchi 5 ta qit’a hamda ularning g’oyaviy-badiiy tahlili beriladi;

-Alisher Navoiy ruboiylari haqida ma’lumot beriladi. “Farzand ato qullig’in chu odat qilg’ay...”, “El qochsa birov din, el yomoni bil oni...”, “G’urbatda g’arib shodumon bo’lmas emish...”, “Ko’z bilan qoshing yaxshi, qabog’ing yaxshi...” deb boshlanuvchi ruboiylari keltirilib, ularning qisqacha g’oyaviy-badiiy tahlili amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, maktab dasturlarida o’quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda mutafakkir shoirning hayoti va ijodi, asarlari, ularda ilgani surilgan g’oyalar tahliliga e’tibor qaratilgan.

⁶To’xliyev B., Karimov B. Usmonova K. Adabiyot: Umumiy o’rta ta’lim muassalarining 10-sinfi va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassalarining o’quvchilari uchun darslik-majmua. –T.: “O’zbekiston milliy ensklopediyasi”, 2017.

Date: 21st January-2026

Alisher Navoiy ulug‘ o‘zbek shoiri, mutafakkiri, o‘zbek adabiyoti va o‘zbek madaniyatining yalovbardori, o‘zbek adabiy tilining asoschisi. Navoiy asarlarining umuminsoniy g‘oyasi – insonparvarligi, xalqparvarligi, adolatparvarligi do‘stlik, tinchlik, mehr va sadoqat, pok sevgi va vafo, ma’rifatlilik kabi go‘zal tuyg‘ularni yuksak badiiy shaklda ifodalashi orqali o‘zbek adabiyoti shuhratini dunyo miqyosiga olib chiqdi.

